

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA
BAG‘RIKENGLIK**

Shuhratbek Xoliqov Yulbasovich

AQXAI qoshidagi akademik litsey

Tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyasining mamlakatlar rivoji va taraqqiyotidagi ahamiyati bayon qilingan. Muallif amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan ishlarni jamiyat rivojiga ahamiyatini misollar bilan izohlagan. Mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga qaratilgan ishlar borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar

bag‘rikenglik, totuvlik, insonparvarlik, milliy munosabatlar, madaniyat, millatlararo totuvlik

Аннотация

В данной статье рассматривается значение идеи межэтнической гармонии и религиозной терпимости для развития и прогресса стран. Автор на примерах объясняет суть проводимых реформ, важность работы, направленной на ведение внешней политики во взаимовыгодном и практическом духе для развития общества. Приводится информация о работе, направленной на дальнейшее повышение международного престижа нашей страны.

Ключевые слова

терпимость, гармония, гуманизм, национальные отношения, культура, просвещение

Abstract

This article describes the importance of the idea of interethnic harmony and religious tolerance in the development and progress of countries. The author explains with examples the essence of the reforms being implemented, the importance of work aimed at conducting a foreign policy in a mutually beneficial and practical spirit for the development of society. Information is provided on work aimed at further increasing the international prestige of our country.

Key words

tolerance, harmony, humanism, national relations, culture, education

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadim-qadimdan yurtimizda bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan turli xalqlar va millatlar axil yashab kelmoqda. Bu zaminda turli millatlarning

madaniyati, tili, urf-odatlari, o‘z turmush tarziga egaligini, turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi millatlar mavjudligini ko‘ramiz. Mamlakatimizda turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam. Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan chinakam islomiy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot hamda vijdon va e‘tiqod tufayli vujudga keladi. Shuningdek, u faqat ma‘naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. O‘zbek millati boshqa millatlar bilan millatlaro xamkorligi asnosida kishilarning tarixiy birligi sifatida uzoq vaqtlar davomida shakllanib keldi, hamda o‘ziga xos bo‘lgan milliy mintalitetni boyitib keldi. Millat umumiyatidagi turmush, til, hudud birligi, madaniyat va ruhiyat uyg‘unligi ko‘ramiz.

Xo‘sh, millatlararo totuvlik deganda nimani tushunamiz? Millatlararo totuvlik va hamjihatlik umumbashariy qadriyat sanaladi. U muayyan jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari ahilligining ma‘naviy asosini mustahkamlaydi, shu hududdagi tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi sayyoramizda yashayotgan 1600 dan ziyod etnik guruhlarining teng huquqlilik, o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g‘oyasi hisoblanadi. Millatlararo totuvlik g‘oyasi millatparvarlik g‘oyasidir. U barcha millat va elatlarning tili, urf-odati, an‘analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi. Millatchilik, fashizm, milliy va etnik ko‘rinishdagi urushlarga qarshi turadigan yagona ma‘rifiy g‘oyadir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy madaniy markazlari faoliyat yuritmoqda. Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Milliy madaniy markazlar etnomadaniy ehtiyojlarni qondirishga, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga hamda mamlakatda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ular o‘z milliy madaniyatlarini rivojlantirish bilan birga, bir-birlari bilan yaqin hamkorlik qilib, O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari orasidagi o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shmoqdalar. Milliy madaniy markazlar va ular ishini muvofiqlashtiruvchi Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri yoshlar haqida g‘amxo‘rlik, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017– 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlik niyanada mustahkamlash, millatlararo

barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. [PF-50-46-son. 19.05.2017.] Farmonga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari Qo‘mitasi tashkil etildi. Agar 1992-yilda 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo‘lsa, hozirda Qo‘mita qoshida 138 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritadi. Mazkur Qo‘mitaning asosiy vazifalari jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do‘stlik va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari va urf-odatlarini asrab-avaylash, xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O‘zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib qilish va boshqalardan iborat.

Dinlararo bag‘rikenglik xaqida so‘z ketganda xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglaymiz. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do‘stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag‘rikenglikka da‘vat etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat’iy nazar, ma‘naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o‘rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Islom dini faqat nurli hayotga, ilm-ma‘rifatga, yaxshilikka undaydigan. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat’i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Diniy bag‘rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e‘tiqodidan qat’iy nazar milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish yo‘lida birlashtiradi.

Jamiyatimizdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg‘un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari jahon hamjamiyati tomonidan keng e‘tirof etilmoqda. Bosh Qomusimizda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari millati, tili, e‘tiqodi, ijtimoiy holatidan qat’i nazar,

O‘zbekiston xalqini tashkil qilishi va qonun oldida tengligi belgilab qo‘yildi. Asosiy qonunimizda bunday huquqning aks ettirilishi mamlakatimizda insonlarning vijdon va e’tiqod erkinligi ta’minlanishining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslarning paydo bo‘layotganligi do‘stlik va hamjihatlik qo‘rg‘onining yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, “O‘zbekistonning boyligi ko‘p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz–jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir”.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 8-moddasida «O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», degan muhim qoida belgilanb qo‘yilgan.

Bugungi kunda ham xalqlar va dinlar orasidagi bag‘rikenglik, tolerantlik g‘oyasi dunyoda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu munosabat bilan, YUNESKO 1995-yil Parijda «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»ni qabul qildi. Birlashgan millatlar tashkiloti esa har yilning 16-noyabrini «Xalqaro bag‘rikenglik kuni» deb e’lon qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahon keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O‘zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo‘lmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalari qadriyat o‘laroq, eng avvalo, boy tarixiy-ma’naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an’analar asosida milliy o‘zligini anglagan, milliy g‘urur - iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova D.D. Dinshunoslik, “O‘qituvchi”, T.-2019, 8-bet.
2. Radiy Fish “Jaloliddin Rumi” T.: “Yangi asr avlodi”, 2016, 335-336-bb.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Taqdiri milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild T: “O‘zbekiston ” IMIU, 2017, 475-bet.
4. Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.
5. N. Alimova, Sh. Asqarov, R. Haydarov, Sh. Amirjo‘jayeov “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”. 2014. – B. 222.
6. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” 2023-yil